

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY

ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025

Hamzaeva Dilfuza Samarovna

Ijtimoiy turizmning ommalashuvi va aholi farovonligini oshirishdagi oʻrni: imkoniyatlar, muammolar va rivojlantirish yoʻnalishlari.....288

Qosimjonov Ikromjon Qosimjon oʻgʻli, Raimberdiyev Samandar Sherzod oʻgʻli

Tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirish yoʻllari.....297

Gʻaniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich

Barqaror tadbirkorlik modeli: raqamli iqtisodiyot sharoitidagi yangi yondashuvlar.....303

Xusan Atamuratovich Joʻraev

Using digital economy indicators in assessing tax capacity: Big Data, machine learning, and real-time fiscal monitoring capabilities.....309

Erkaev Akrom Normuhammadovich

Oʻzbekistonda raqamlashtirish va IT-parklar orqali iqtisodiyotini takomillashtirish.....315

Turgʻunova Gulchexra Tulkinovna

Qishloq xoʻjaligida texnik-texnologik salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish yoʻnalishlari (Andijon viloyati fermer xoʻjaliklari misolida).....323

Kadirova Shakhnoza Ilhomovna

Scientific analysis, methodology and directions of improvement of economic potential management of industrial enterprises.....333

Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna

Tannarx kalkulyatsiyasi metodologiyasi: nazariy va amaliy yondashuvlar.....338

Toʻrayeva Muyassar Rasul qizi

Meva-sabzavotchilikni moliyalashtirishda kraudfandingning samaradorlik modeli: xalqaro tajriba va Oʻzbekiston imkoniyatlari.....345

Eshev Alibek Sabirovich, Erkinova Shaxina, Abdiyeva Zarnigor Jahongir qizi, Begaliyeva Mardona Ilhom qizi

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarish samaradorligini boshqarishda statistik tahlil va menejment yondashuvlarining integratsiyasi.....353

Musaxonov Rustam Musaxon oʻgʻli

Resurslarga asoslangan yondashuv (RBV) va resurs ustunligi nazariyasi (RAT) ning qurilish materiallari sanoat korxonalarini boshqarishda raqobat strategiyalaridan foydalanishda tutgan oʻrni.....361

Abdullaev Oʻtkir Abduraim oʻgʻli

Oʻzbekistonda dukkakli ekinlar ishlab chiqarish va eksport tendensiyalari.....368

Ergashev Giyos Bakhrom ugli

Theoretical principles of improving the agricultural product export system.....373

Bovaqulova Mavjuda Rakhimberdievna

Zamonaviy tashkilotlarda liderlik uslublari va korporativ madaniyat rivoji oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik.....379

Irisboev Shokhrukhbek

Impact of small businesses on local economies in tourism destinations.....384

Dilmurodov Hasan Faxriddin oʻgʻli

Urugʻchilik tizimi va importga bogʻliqlikning agrar barqarorlikka taʼsiri.....390

Xamitova Mavluda Sindarovna, Soatova Hilola Sodiq qizi

Urbanizatsiya va demografik oʻzgarishlar: jahon tajribasi va Oʻzbekiston misolida.....395

Shakirova Madinaxon Gafurdjanovna

Tadbirkorlikning nazariy jihatlarini va innovatsion rivojlanishdagi roli: ilmiy-nazariy tahlil va konseptual yondashuvlar.....400

MEVA-SABZAVOTCHILIKNI MOLIYALASHTIRISHDA KRAUDFANDINGNING SAMARADORLIK MODELII: XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON IMKONIYATLARI

TO‘RAYEVA MUYASSAR RASUL QIZI

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida strategik
rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi tadqiqotchisi

E-mail: muyassarxon1177@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmi zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinib, an’anaviy moliyaviy vositalar bilan bir qatorda kraudfanding tizimining o‘rni va afzalliklari yoritilgan. Agricrowd.uz kabi milliy platforma konsepsiyasi, uning interfeysi, moliyalashtirish algoritmi va garov ta’minoti mexanizmi ishlab chiqilib, tizimning qishloq xo‘jaligida moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, kichik fermerlar va yosh tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar ochishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: meva-sabzavotchilik, moliyalashtirish mexanizmi, kraudfanding, agricrowd.uz, subsidiya, sug‘urta, moliyaviy innovatsiyalar.

Аннотация. В статье анализируется механизм финансирования производства плодоовощной продукции на основе современных подходов, освещается роль и преимущества системы краудфандинга наряду с традиционными финансовыми инструментами. Будет разработана концепция национальной платформы, такой как Agricrowd.uz, ее интерфейс, алгоритм финансирования и механизм залогового обеспечения, а также показана важность системы в расширении финансовой инклюзии в сельском хозяйстве и открытии новых возможностей для малых фермеров и молодых предпринимателей.

Ключевые слова: плодоовощеводство, механизм финансирования, краудфандинг, agricrowd.uz, субсидия, страхование, финансовые инновации.

Abstract. The article analyzes the mechanism for financing the cultivation of fruit and vegetable products based on modern approaches, highlighting the role and advantages of the crowdfunding system along with traditional financial instruments. The concept of a national platform such as Agricrowd.uz, its interface, financing algorithm and collateral mechanism will be developed, and the importance of the system in expanding financial inclusion in agriculture and opening new opportunities for small farmers and young entrepreneurs will be shown.

Keywords: fruit and vegetable growing, financing mechanism, crowdfunding, agricrowd.uz, subsidies, insurance, financial innovations.

KIRISH

Meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirish tarmog‘i har bir davlat iqtisodiyotida asosiy strategik bo‘g‘inlardan biri bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati va qishloq hududlarida bandlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Biroq

ushbu tarmoqda ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish ko‘plab hollarda moliyalashtirish muammolari bilan cheklanadi. An’anaviy bank kreditlari, davlat subsidiyalari va xalqaro moliyaviy institutlar resurslari barcha fermer xo‘jaliklari ehtiyojini to‘liq qoplay olmayapti, ayniqsa kichik va o‘rta fermerlar hamda organik mahsulot yetishtiruvchilar uchun kapitalga kirish imkoniyati cheklangan. Shu nuqtai nazardan, meva-sabzavotchilikni moliyalashtirishda muqobil mexanizmlar, xususan, kraudfanding tizimidan foydalanish dolzarb bo‘lib bormoqda. Kraudfanding – bu ko‘plab kichik investorlar (hamjamiyat) tomonidan onlayn platformalar orqali ma’lum loyiha yoki faoliyatni moliyalashtirish tizimi bo‘lib, u an’anaviy kreditlashga nisbatan moslashuvchan va ijtimoiy yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu maqolada meva-sabzavotchilikni moliyalashtirish mexanizmining mavjud tarkibi, kraudfandingning turlari, xalqaro tajriba hamda O‘zbekiston sharoitida milliy agro-kraudfanding platformasi modeli tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyalashtirish mexanizmi bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda meva-sabzavotchilik tarmog‘i uchun kreditlash, subsidiya, sug‘urta va xalqaro moliyaviy institutlar resurslaridan foydalanish keng yoritilgan. Ko‘plab tadqiqotlarda qisqa muddatli kreditlarning urug‘, ko‘chat, o‘g‘it va mavsumiy xarajatlarni qoplashdagi ahamiyati, uzoq muddatli kreditlarning esa issiqxonalar, sovutkich omborlari, qayta ishlash sexlari kabi kapital talab qiluvchi infratuzilmani rivojlantirishdagi o‘rni ta’kidlanadi. Imtiyozli davrga ega kreditlar hosil realizatsiyasidan so‘ng qaytarilishi hisobiga likvidlik muammosini yumshatishi, foiz stavkalari subsidiya qilinishi esa fermerlar uchun arzon moliyaviy resurs manbasini yaratishi qayd etiladi.

Sug‘urta mexanizmlari bo‘yicha adabiyotlarda hosil sug‘urtasi, narx tebranishi sug‘urtasi va kredit sug‘urtasining qishloq xo‘jaligida xavf-xatarlarni kamaytirishdagi roli tahlil qilingan. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar – IFAD, Jahon banki, JICA, Yevropa Ittifoqi, FAO va boshqalar – tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar kichik fermerlarga imtiyozli kredit va grantlar, yirik irrigatsiya va melioratsiya loyihalarini moliyalashtirish, texnologik va ilmiy ekspertiza ko‘rinishida qaraladi.

Kraudfanding bo‘yicha adabiyotlarda mazkur tizimning mukofotga asoslangan (reward-based), xayriya asosidagi (donation-based), aksiyaga asoslangan (equity-based), qarz asosidagi (debt-based) va token asosidagi (STO) turlari farqlanadi. Lendahand, Kiva, AgFunder, FarmTogether, Trine, GoGetFunding, Patronicity, Seedrs, Crowdcube kabi platformalar misolida kraudfandingning ijtimoiy yo‘naltirilgan, tijoriy va gibrid modellarini ko‘rish mumkin. Agro-sohaga ixtisoslashgan platformalarda kichik fermerlar, qishloq jamoalari va energiya bilan bog‘liq agrar loyihalar uchun turli moliyalashtirish modellari qo‘llanilib, foizli qarz, foizsiz kredit, aksiyalar va tokenlar orqali sarmoya jalb qilinadi.

Yaqin yillarda O‘zbekiston bo‘yicha ilmiy manbalarda raqamli moliya, agro-leasing, islomiy moliya vositalari (murabaha, musharaka, sukuk), fintech xizmatlari (onlayn to‘lovlar, kredit scoring, elektron kafolatlar) va raqamli agentliklar orqali qishloq xo‘jaligida moliyaviy inklyuziyani oshirish masalalari ham ko‘tarilmoqda.



Biroq meva-sabzavotchilikni bevosita kraudfanding orqali moliyalashtirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar hali cheklangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi meva-sabzavotchilik mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmini kompleks tahlil qilishga, uning tarkibiy qismlarining oʻzaro bogʻliqligini aniqlashga hamda kraudfanding tizimini mazkur tarmoqqa moslashtirish imkoniyatlarini baholashga qaratildi. Bu jarayonda tizimli yondashuv asosida kreditlash tizimi, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, sugʻurta mexanizmlari, xalqaro tashkilotlar ishtiroki, moliyaviy risklarni boshqarish vositalari, bozor va logistika qoʻllovi, innovatsion moliyaviy instrumentlar, xususiy sektor hamda investitsion oqimlarning oʻzaro aloqasi tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali Lendahand, Kiva, AgFunder, FarmTogether, Trine, GoGetFunding, Patronicity, Seedrs va Crowdcube kabi xalqaro kraudfanding platformalarining faoliyati (1-jadval), moliyalashtirish modeli, hududiy yoʻnalishi, risklarni kamaytirish strategiyasi va moliyaviy natijalari oʻrganildi.

1-jadval

Dunyodagi agrar soha uchun mablagʻ ajrata oladigan platformalar

Platforma nomi	Moliyalashtirish yoʻnalishi	Asosi	Turlari	Joylashgan hudud
Lendahand	Kichik bizneslar, shu jumladan qishloq xoʻjaligi	Qarz asosida	Foiz	Niderlandiya
Kiva¹	Qishloq aholisi va fermerlar uchun foizsiz kreditlar	Ijtimoiy yoʻnaltirilgan	Hayriya	AQSh
Agfunder²	Innovatsion agroteknologiyalar va qishloq xoʻjaligi startaplari	Agrosoha, equity asosida	Foiz	Singapur / AQSh
FarmTogether	AQShda yirik fermer xoʻjaliklariga investitsiya(15000\$ eng kami)	Professional investorlar	Foiz	AQSh
Trine³	quyosh energiyasiga ixtisoslashgan, lekin qishloq xoʻjaligi bilan bogʻliq energiya loyihalar	Tijoriy model	Foiz	Shvetsiya
GoGetFunding⁴	Fermerlik, organik bogʻdorchilik va mahalliy agro loyihalar	Ijtimoiy yoʻnaltirilgan	Hayriya	Buyuk Britaniya
Patronicity⁵	kichik jamoalarning loyihalari	Ijtimoiy yoʻnaltirilgan	Hayriya	AQSh
Seedrs⁶	Agribiznes startaplar aksiyalarni sotsa, investorlar orqali pul yigʻish	Tijoriy model	Foiz	Buyuk Britaniya
Crowdcube⁷	Agribiznes startaplar aksiyalarni sotsa, investorlar orqali pul yigʻish	Tijoriy model	Egalik huquq	Buyuk Britaniya

¹ <https://www.kiva.org/>

² <https://agfunder.com/about-us/>

³ <https://trine.com/>

⁴ <https://gogetfunding.com/>

⁵ <https://www.patronicity.com/about-us>


⁶ <https://europe.republic.com/>

⁷ <https://www.crowdcube.com/explore/about-us/bcorp>


Tasniflash yondashuvi asosida kraudfandingning besh turi — mukofotga asoslangan, xayriya asosidagi, aksiyaga asoslangan, qarz asosidagi va token asosidagi modellar tahlil qilindi va meva-sabzavotchilik tarmogʻiga eng mos modellar sifatida reward-based va debt-based yondashuvlar aniqlab berildi. Konseptual yondashuv asosida meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni kraudfanding orqali moliyalashtirishning metodologik modeli, yaʼni 1-rasmda keltirilgan algoritm ishlab chiqildi va fermer, platforma administratorlari, investorlar hamda sugʻurta tashkilotlari oʻrtasidagi jarayonlar izchil koʻrsatildi. Amaliy modellash tirish yondashuvi orqali Agricrowd.uz platformasining interfeysi, funktsionalligi, roʻyxatdan oʻtish tartibi, toʻlov tizimlari integratsiyasi, garov taʼminoti shakllari va moliyalashtirishning qaytarilish mexanizmi ishlab chiqildi. Kontent tahlili va ekspert yondashuvi orqali Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligini subsidiya qilish tizimi, agroplatforma.uz, raqamli qishloq xoʻjaligi axborot tizimlari, xalqaro loyihalar tajribasi hamda mahalliy fermerlarning moliyaviy cheklovlari, ehtiyojlari va bozor sharoitlari oʻrganildi. Shu asosda kraudfandingning Oʻzbekiston sharoitida qoʻllash imkoniyatlari, uning ustunliklari, mavjud toʻsiqlar va zarur huquqiy asoslar boʻyicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, meva-sabzavotchilikni moliyalashtirish mexanizmi kreditlash, sugʻurta, davlat subsidiyalari, xalqaro moliyaviy tashkilotlar ishtiroki, moliyaviy risklarni boshqarish, bozor va logistika qoʻllovi, moliyaviy innovatsiyalar va xususiy investitsiyalar kabi keng koʻlamli mexanizmlardan tashkil topgan boʻlib, ularning har biri tarmoqning moliyaviy barqarorligini taʼminlashda muhim oʻrin tutadi. Kreditlash tizimi qisqa muddatli kreditlar orqali urugʻ, koʻchat, oʻgʻit va mavsumiy xarajatlarni qoplash imkonini berar ekan, uzoq muddatli kreditlar issiqxonalar, sovutkich omborlari va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Imtiyozli davrli kreditlar hosil sotilgandan soʻng toʻlash orqali likvidlik muammosini kamaytiradi, subsidiyalangan kreditlar esa fermerlarga arzon moliya manbai yaratadi. Sugʻurta mexanizmlarida hosil sugʻurtasi tabiiy ofatlar oqibatidagi yoʻqotishlarni kamaytirsa, narx tebranishi sugʻurtasi bozor konʻyunkturasidagi keskin oʻzgarishdan himoya qiladi, kredit sugʻurtasi esa banklar uchun riskni pasaytiradi va ularni qishloq xoʻjaligini moliyalashtirishga ragʻbatlantiradi. Davlat qoʻllovi urugʻ va koʻchat uchun subsidiyalari, suv tejovchi texnologiyalarga koʻmak, zamonaviy texnika xaridiga imtiyozlar va kredit foizlarini qisman qoplash orqali sezilarli yordam beradi. Xalqaro tashkilotlar IFAD orqali kichik fermerlarga imtiyozli kredit va grantlar, Jahon banki orqali yirik irrigatsiya va melioratsiya loyihalari, JICA, Yevropa Ittifoqi va FAO orqali ilmiy-texnik yordam shaklida tarmoqni qoʻllab-quvvatlamogʻda. Moliyaviy risklarni boshqarish tizimida diversifikatsiya, davlat kafolatlari va zaxira fondlari ishlab chiqaruvchilarni favqulodda xatarlar oldida himoyalaydi. Tahlillar shuni koʻrsatdiki, bozor va logistika qoʻllovi, jumladan logistika markazlari, sovutkich omborlari, eksport kreditlari va kontraktatsiya shartnomalari meva-sabzavot mahsulotlarining bozorga barqaror chiqishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.



1-rasm Meva sabzavot mahsulotlarini yetishtirishni moliyalashtirishning Kraudfundingdan foydalanish algoritmi



AgriCrowd.uz orqali O'zbekiston fermerlarini qo'llab-quvvatlang.

Barqarorlik sari qo'ygan har bir qadamimiz tabiatning go'zalligi va resurslarini bugungi va ertangi kun uchun saqlab qolish majburiyatidir.



2-rasm. Agricrowd.uz platformasining interfeys ko'rinishi



Moliyaviy innovatsiyalar ichida kraudfanding tizimi alohida ajralib turadi. Reward-based va debt-based modellar kichik fermerlar, ayniqsa organik mahsulot yetishtiruvchilar uchun qulay bo'lib, mahsulot evaziga yoki belgilangan foiz asosida sarmoyani qaytarish imkonini beradi. Dunyo amaliyotida Lendahand platformasi mikromoliya institutlari orqali kreditlashni yo'lga qo'ygani sababli xavflarni kamaytirgan, Kiva foizsiz kreditlash orqali ijtimoiy ta'sirga erishgan, AgFunder innovatsion agrostartaplarni equity modeli orqali moliyalashtirgan, Crowdcube va Seedrs esa agribiznes kompaniyalarini aksiyalar sotish orqali qo'llab-quvvatlagan. Ushbu tahlillar O'zbekiston uchun ham mos yondashuvlarni belgilashga yordam berdi. O'zbekistonda kraudfandingni joriy etishda mehnatkash, ammo moliyaviy imkoniyatlari cheklangan fermerlar ko'pligi, iqlim va yer resurslarining serhosilligi, ichki va tashqi bozorda talabning yuqoriligi, yoshlar orasida raqamli savodxonlikning oshib borayotgani asosiy ustunliklar sifatida namoyon bo'lmoqda. Agricrowd.uz platformasi konsepsiyasi, uning interfeysi (2-rasm), moliyalashtirish algoritmi (1-rasm), garov ta'minoti (mahsulot, mulk, sug'urta polisi, kafil tashkilot) va to'lov tizimlari (Click, Payme, Uzcard) asosida ishlash mexanizmlari ishlab chiqilgani kraudfanding modelining amaliy qo'llanishi uchun muhim natija bo'ldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari meva-sabzavotchilikni moliyalashtirish tizimi ko'p komponentli, murakkab va o'zaro bog'langan elementlardan iborat ekanini ko'rsatdi. Kreditlash tizimi, imtiyozli va subsidiyalangan kreditlar, sug'urta instrumentlari, davlat qo'llovi, xalqaro tashkilotlar ishtiroki, moliyaviy risklarni boshqarish, bozor va logistika infratuzilmasi, moliyaviy innovatsiyalar va xususiy investitsiyalar tarmoqning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi ustunlar sifatida shakllanadi. Kraudfanding ushbu mexanizmida innovatsion va moslashuvchan yondashuv bo'lib, ayniqsa kichik va o'rta fermerlar, yosh tadbirkorlar va organik mahsulot yetishtiruvchilar uchun qo'shimcha moliyalashtirish kanali sifatida juda istiqbolli vosita ekanligi aniqlandi. Reward-based va debt-based modellar O'zbekiston sharoitiga eng mos keladi, chunki ular mahsulot evaziga yoki foiz asosida sarmoyaning qaytarilishini ta'minlaydi. O'zbekistonda kraudfandingni joriy etish jarayonida mehnatkash, ammo moliyaviy imkoniyatlari cheklangan fermerlar ko'pligi, serhosil yer va iqlim sharoitlari, eksport bozorlarida talabning yuqoriligi, yoshlar orasida raqamli savodxonlikning o'sishi kabi imkoniyatlar mavjud. Takliflar sifatida, birinchidan, kraudfandingni tartibga soluvchi aniq huquqiy asoslarni ishlab chiqish, soliq imtiyozlari, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini belgilash zarur. Ikkinchidan, Agricrowd.uz kabi milliy platformani pilot tarzda ishga tushirish, dastlab kichik hajmli, organik yo'nalishdagi yoki qisqa muddatli loyihalardan boshlab kengaytirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, fermerlar va investorlar uchun moliyaviy hamda raqamli savodxonlik bo'yicha o'quv dasturlarini joriy etish, konsultatsion xizmatlar ko'rsatish, qo'llanmalar ishlab chiqish kerak. To'rtinchidan, kraudfanding loyihalarini sug'urta mexanizmlari, agroplatforma.uz, subsidiya tizimi va raqamli qishloq xo'jaligi axborot tizimlari bilan integratsiya qilish orqali risklarni

kamaytirish lozim. Beshinchidan, kraudfanding loyihalarini agrokooperatsiya va agroklastlar bilan bog'lash, bir nechta fermerlarni bir loyiha doirasida birlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish tavsiya etiladi. Umuman olganda, kraudfanding meva-sabzavot tarmog'ini moliyalashtirishning yangi va innovatsion mexanizmi sifatida O'zbekiston qishloq xo'jaligida moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qila oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Food and Agriculture Organization (FAO). Agricultural Finance and Investment for Development. Rome, 2019.
2. International Fund for Agricultural Development (IFAD). Rural Finance Policy. Rome, 2018.
3. World Bank. Agricultural Risk Management in Emerging Economies. Washington D.C., 2017
4. Japan International Cooperation Agency (JICA). Agricultural Development and Technical Support Reports. Tokyo, 2020.
5. European Union – FAO. Agricultural Modernization and Rural Development Programs. Brussels–Rome, 2021.
6. Lendahand. Crowdfunding Projects and Annual Impact Reports. Available at: <https://www.lendahand.com>
7. Kiva. Microfinance and Farmer Support Programs. Available at: <https://www.kiva.org>
8. AgFunder Network Partners. Agrifood Tech Investing Report 2023. Singapore–San Francisco, 2023.
9. FarmTogether. Farmland Investment Overview and Reports. Available at: <https://farmtogether.com>
10. Seedrs. Equity Crowdfunding Platform Reports. Available at: <https://www.seedrs.com>
11. Crowdcube. Agribusiness Startup Financing Reports. Available at: <https://www.crowdcube.com>
12. Trine Energy. Solar and Agricultural Energy Investment Reports. Gothenburg, 2022.
13. GoGetFunding. Agricultural Community Projects Report. Available at: <https://gogetfunding.com>
14. Patroncity. Community-driven Crowdfunding Projects. Available at: <https://www.patroncity.com>